


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING
CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2018 yil yanvar-sentabr)


Respublika bo'yicha joriy yilning yanvar-sentyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 93 182,7 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,9 foizga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 12 144,4 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 19,5 foiz), kichik tadbirkorlik sub`ektlarining tovar aylanmasi 69 566,2 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 3,9 foiz) hamda uyushmagan savdoda tovar aylanmasi 11 472,1 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,1 foizga kamaygan) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi
(mlrd. so'm)




2017 yilning shu davriga nisbatan respublikaning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Toshkent shahri, Toshkent, Farg'ona viloyatlari qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari (foizda)




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi (foizda)

2017 yil
yanvar-sentabr




2018 yil
yanvar-sentabr



Yirik korxonalar
 Kichik tadbirkorlik

**Chakana savdo aylanmasida
yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi (foizda)**



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi o`tgan yilning mos davriga nisbatan 19,5 foizga o`sdi va 12 144,4 mlrd. so`mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 13,0 foiz ulushiga to`g`ri keladi.


Kichik tadbirkorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko`ra, 81 038,3 mlrd. so`mni tashkil etib, 2017 yilning yanvar-sentyabr oylariga nisbatan 3,0 foizga o`sdi. Respublika miqiyosida ushbu sektoring jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 87,0 foizga teng kelmoqda.

Shuningdek, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo`yicha Sirdaryo (93,7%), Navoiy (92,3%), Jizzax (92,2%) va Surxondaryo (92,0%) viloyatlari yetakchilik qilmoqda.

**Kichik tadbirdorlik va yirik korxonalarning
chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**

	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik tadbirdorlik (mlrd.so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
O'zbekiston Respublikasi	12144,4	119,5	81038,3	103,0
Qoraqalpog`iston Respublikasi	303,1	131,6	2703,5	103,2
<i>viloyatlar:</i>				
Andijon	735,9	141,3	6630,9	102,0
Buxoro	675,6	149,8	5043,9	102,2
Jizzax	245,5	162,7	2898,3	103,9
Qashqadaryo	513,8	129,0	5726,4	101,9
Navoiy	292,5	158,1	3486,7	102,7
Namangan	458,5	102,7	5206,9	105,0
Samarqand	721,0	152,1	7099,9	102,3
Surxondaryo	485,2	109,0	5587,2	103,6
Sirdaryo	104,3	88,2	1548,2	106,4
Toshkent	1119,6	102,8	8771,1	102,8
Farg`ona	839,2	116,7	7359,6	103,0
Xorazm	645,0	123,9	2975,8	102,4
Toshkent sh.	5005,1	112,7	15999,9	103,2

Hududlarda kichik tadbirkorlik sub`ektlarining respublika chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, ((foizda))



2018 yilning o'tgan davri mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,8 foizni tashkil etib, 2599,9 mlrd. so`mga yetdi yoki o'tgan yilning yanvar-sentyabr oylariga nisbatan 2,3 foizga o'sishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 85,6 foiz ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida o'tgan yilga nisbatan respublikamizning barcha hududlarida o'sish ko`rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko`rsatkilar Toshkent shahri (8464,9 ming.so`m), Navoiy (3920,7 ming. so`m) va Toshkent(3440,6 ming.so`m) viloyatlari hissasiga to`g`ri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko`rsatkichlar Qoraqalpog`iston Respublikasi (1623,7 ming.so`m), Xorazm (1994,8 ming.so`m) va Qashqadaryo (1967,4) viloyatlarida qayd etilgan.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi respublika bo'yicha aholi jon boshiga 2 834,8 ming so`mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,1 foizga ko`paygan. Ushbu ko`rsatkich respublika hududlari kesimida quyidagicha ko`rinish olgan:

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so`m	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
O`zbekiston Respublikasi	2 834,8	103,1
Qoraqalpog`iston Respublikasi	1 623,7	104,0
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	2 430,4	103,2
Buxoro	3 041,3	104,6
Jizzax	2 355,1	104,9
Qashqadaryo	1 967,4	101,7
Navoiy	3 920,7	103,9
Namangan	2 083,9	103,0
Samarqand	2 086,2	103,5
Surxondaryo	2 396,1	101,8
Sirdaryo	2 013,1	103,3
Toshkent	3 440,6	101,6
Farg`ona	2 250,6	102,6
Xorazm	1 994,8	104,0
Toshkent sh.	8 464,9	103,5

2018 yilning o`tgan davri mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,8 foizni tashkil etib, 2599,9 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning yanvar-sentyabr oylariga nisbatan 2,3 foizga o'sishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 85,6 foiz ulushi kichik tadbirdorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI


(2018 yil yanvar-sentabr)

Yil boshidan respublika bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 39 802,5 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2017 yilning shu davriga nisbatan 6,6 foizga o'sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik sub`ektlariga to`g`ri kelib, mazkur hajm 2018 yil yanvar-sentyabr oylari yakunlariga ko`ra 26 576,0 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,0% ga o'sdi. Ushbu sektoring umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 66,8%ni tashkil qilmoqda.

Yirik va kichik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi


(v %)



Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mlrd.so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mlrd.so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
O'zbekiston Respublikasi	39802,5	106,6	13226,5	110,0	26576,0	105,0
Qoraqalpog`iston Respublikasi	858,5	103,1	346,4	91,3	512,1	112,9
<i>viloyatlar:</i>						
Andijon	1301,6	109,3	521,1	99,2	780,6	117,3
Buxoro	1590,9	115,1	575,9	114,3	1014,9	115,5
Jizzax	939,1	145,1	495,0	264,3	444,1	96,5
Qashqadaryo	1622,8	94,0	806,1	87,6	816,6	101,3
Navoiy	1168,1	186,2	778,4	324,2	389,6	100,6
Namangan	1505,3	110,4	615,1	131,9	890,1	99,3
Samarqand	2821,0	97,5	792,2	90,3	2028,9	100,5
Surxondaryo	1526,4	108,7	573,0	117,7	953,4	104,0
Sirdaryo	866,2	102,9	365,8	92,9	500,3	111,7
Toshkent	4431,8	111,2	2756,1	111,8	1675,6	110,1
Farg`ona	2323,2	102,2	622,3	91,9	1700,9	106,5
Xorazm	936,2	115,0	452,4	140,1	483,8	98,5
Toshkent sh.	17911,5	102,7	3526,6	98,2	14384,9	103,9

**Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining
o'tgan yilga nisbatan o'zgarish sur'atlari (foizda)**



Ulgurji tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan quyidagi hududlarning o'sish sur'atida kamayishi kuzatildi: Qashqadaryo viloyati -94,0 %, Samarqand viloyati – 97,5 %.

Kichik korxona va mikrofirmalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi 5,0 foizga oshdi va 26576,0 mlrd. so`mga yetib, umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 66,8 foizni tashkil qildi.